https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Mushtariybegim Ismoilova**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universiteti 4-bosqich talabasi

burxobovismoil@gmail.com

Ilmiy rahbar: **f.f.f, dots. Dilafruz Jabborova**

# JEYN OSTIN ASARLARIDA OILA VA MUHABBAT MUNOSABATLARI “ANDISHA VA G‘URUR” ASOSIDA

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Jeyn Ostinning mashhur asari — “Andisha va g‘urur” asari tahlilga olinadi. Asarda muallif yashagan tarixiy davr ijtimoiy muammolari bilan asardagi obrazlar, mavzular va g‘oyaviy yo‘nalishlar o‘rtasidagi uyg‘unlik ochib beriladi. Ayniqsa, oila institutining jamiyatdagi o‘rni, turmush qurish masalasiga sinfiy nuqtai nazardan yondashuv, va sevgi mavzusining ijtimoiy tabaqalanishga qarab aks ettirilishi haqida ma’lumot beriladi. Maqolada Jeyn Ostinning realizmga xos badiiy yondashuvi, uning obrazlar orqali jamiyatdagi muammolarni ochib berish mahorati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar**

Nikoh, turmush, muhabbat, oila, hissiyot, munosabatlar, jamiyat, chorasizlik, boylik, ishon, tuyg‘u.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Аннотация**

В данной статье анализируется знаменитый роман Джейн Остин — «Гордость и предубеждение». В произведении раскрывается взаимосвязь между социальными проблемами исторического периода, в котором жила автор, и персонажами, темами и идеями романа. Особое внимание уделяется роли института семьи в обществе, классовому подходу к браку, а также отражению темы любви через призму социального расслоения. В статье также рассматривается реалистический художественный стиль Джейн Остин и её мастерство в раскрытии социальных проблем через образы персонажей.

**Ключевые слова**

брак, семья, любовь, дом, эмоция, отношения, общество, безысходность, богатство, доверие, чувство.

**Annotation**

This article analyzes Jane Austen’s famous novel Pride and Prejudice. It explores the harmony between the social issues of the historical period in which the author lived and the characters, themes, and ideological directions in the novel. Special attention is given to the role of the family institution in society, the class-based approach to marriage, and the portrayal of love in the context of social stratification. The article also highlights Jane Austen’s realistic artistic style and her skill in revealing social problems through her characters.

**Keywords**

Marriage, lifestyle, love, family, emotions, relationships, society, helplessness, wealth, trust, feeling.

**Kirish (Introduction):** Jeyn Osten adabiy dunyosining badiiy markazida oila va mehr-muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. Uning romanlarida asosiy tushunchalar nafaqat hissiy bog‘lanish, balki individual tanlovlar va ijtimoiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

umidlarni shakllantiradigan muhim ijtimoiy kuchlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ostenning qahramonlari ko‘pincha shaxsiy his-tuyg‘ular va oilaviy majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni topish uchun kurashadi, bu esa ular qalbidagi mushtarak jihatlarni ochib berishga ba’zan qarama-qarshi aloqalarni ochib beradi. Buni “Andisha va g’urur” asaridagi Bennetlar oilasimisolida ko‘rishimiz mumkin. Oiladagi opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar: mehr-muhabbat va sadoqatni siymosining yuksak darajada tarannum etadi. Ammo oilaning sevgi, nikoh va odob-axloq haqidagi turli fikrlari keskin to‘qnashuvni yuzaga keltiradi. Janob Bennet uzoq va kinoyali (kibrli), missis Bennet esa qizlarini faqat badavlat sovchilarga turmushga berishni muntazam o‘ylaydi. Bu qarama-qarshi munosabatlar keyinroq ijtimoiy umidlarni aks ettiradi, bunda oilaning obro‘si va moliyaviy omon qolishi ko‘pincha foydali nikohlarga bog‘liqligiga ishora qilinadi. Biroq, Osten oilaviy hayotni ideallashtirmaydi, uning cheklovlari va bosimlari ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Lidiya Bennet kabi qahramonlar oilada to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq va yetuklikning yo‘qligi sabab salbiy harakatlar va ijtimoiy sharmandalikka olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Elizabet Bennet siymosida, ijtimoiy me’yorlarga ko‘r-ko‘rona bo‘ysunmaydigan, obraz sifatida oilada mustaqil, o‘ziga ishongan, lekin qalbi nihoyatda pok, samimiyligi ko‘zga tashlanadi.

Osten ijodining yana bir muhim jihati - uning nikoh tasviri. O‘z davrida keng tarqalgan tranzaksiya nuqtai nazaridan farqli o‘laroq, Osten haqiqiy mehr, o‘zaro hurmat muvaffaqiyatli ittifoqning asosi bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Elizabet va Darsi o‘rtasidagi rivojlanayotgan munosabatlar bu qarashning dalilidir, bunday noto‘g‘ri talqin esa mag‘rurlikdan boshlanadi. Bu asta-sekin o‘zaro tan olish va chuqur hissiy rishtalarga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, Ostenning romanlari oilaning ijtimoiy o‘ziga xoslik bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Oilaviy obro‘-e’tibor qahramonlarni hayotdagi imkoniyatlariga ta’sir kuchini o‘tkazadi. Ayniqsa, xonim Ketrin de Burning ijtimoiy mavqeining pastligi sababli Elizabetni yoqtirmasligida aniq ko‘rinadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shunga qaramay, Osten bu qattiq sinf tuzilmalarini tanqid qilib, qahramonlariga shaxsiy o‘sish va haqiqiy hissiyotlar orqali ularni yengishga imkon beradi.

**Metodlar (Methods):** Jane Ostinning ushbu asari XIX asr boshlaridagi Britaniya jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, ayniqsa, turmush va jinslar roli borasidagi ijtimoiy qoidalarni chuqur tanqid qiluvchi asar sifatida baholanadi. Austen davrida ayollar ko‘pincha muhabbat yoki shaxsiy baxtdan ko‘ra moliyaviy xavfsizlik uchun turmush qurishga bosim ostida bo‘lishardi. Bunday ijtimoiy kutilmalar ayollarning mustaqilligi va hissiy qoniqishiga katta cheklovlar o‘rnatardi. Biroq, Elizabet Bennet obrazida Osten patriarxal me’yorlarga qarshi chiqib, boylik va ijtimoiy mavqega emas, balki muhabbat, o‘zaro hurmat va shaxsiy tanlovga e’tibor beruvchi qahramonni tasvirlaydi. Elizabetning tanlovlari va an’anaviy muammolar o‘rtasidagi tafovvut orqali Ostin samimiy muhabbat va shaxsiy erkinlikka asoslangan nikohni targ‘ib qiladi.

“Nikohda baxtli bo‘lish tasodif o‘yinlariga bog‘liq. Ikkala tomon bir-birlari to‘g‘risida qanchalik ko‘p narsa bilishmasin va bir-birlariga qanchalik mos kelishmasin – bu narsa ularning baxtli bo‘lishlari uchun omil bo‘la olmaydi” [1; 29].

Asardan bildirilgan fikrlar orqali muhabbatsiz qurilgan nikoh kamdan kam hollardagina baxtli davom etishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu muammo nafaqat Jeyn Ostin davridagi muammo, balki bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan muammo sifatida e’tirof etadi. Yozuvchi asari orqali insonda qachonki haqiqiy muhabbat va ishonch bo‘lsa, shundagina turmush qurish lozimligi Elizabet obrazi orqali ta’kidlaydi.

Bennet xonim Elizabetni uncha yoqtirmaydi. Shu sabab, u boshqa qizlariga qaraganda kamroq qayg‘uradi. Ona doim qizlarini boy odamga turmushga berish orqali moddiy ahvoli yaxshilanishi haqida o‘ylaydi. Elizabet onasining fikrlarga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qarshi chiqib, opalari va singillarining muhabbatsiz turmush qurishi natijasida baxtsizlik sari yo‘l olishi mumkinligi kuzatiladi.

Lekin Bennet xonim bularni e’tibor bermagan holda, qolgan qizlari uchun ham badavlat turmush o‘rtoq qidirishda davom etadi.

“Chunki turmushga chiqibgina o‘qimishli, lekin kambag‘al qiz jamiyatda o‘z o‘rnini topar, baxtli bo‘lmasa ham, chorasizlikdan himoyalangan bo‘lardi” [1;135].

Asarda o‘qimishli, lekin kambag‘al qizning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei faqatgina turmush qurish orqali ta’minlanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Baxt va shaxsiy istaklar emas, balki chorasizlikdan qutulish, jamiyatda “himoyalangan” maqomga ega bo‘lish ehtiyoji ustuvor bo‘lib qolgan. Bu holat patriarxal tuzumda ayolning mustaqil shaxs sifatida emas, balki oilaviy maqom orqali baholanishini ko‘rsatadi. Aytish mumkinki, bu fikr orqali muallif ayollar tanlovining cheklanganligini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizligi ko‘pincha turmushga chiqish orqali kafolatlanishini tanqidiy nuqtai nazardan yoritgan.

Demak, ayol baxtli bo‘lmasa ham, jamiyat nazarida o‘ziga “joy topgan” bo‘ladi – bu esa ayollarga nisbatan mavjud ijtimoiy qarashlarning achchiq ifodasidir.

Olim Rory Muirning “Love and marriage in the age of Jane Austen” (Jeyn Ostin davrida oila va muhabbat) kitobining “Unhappy marriage” (Baxtsiz turmush) bo‘limida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi:

“Ba’zida baxtsiz yakun muqarrar bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa-da, katta romantik hayajon va ehtiros bilan boshlangan boshqa nikohlar ham ko‘z yoshlar bilan yakun topishi mumkin” (Mening tarjimam). [2; 244]

**Natijalar (Results):** Ushbu fikrlardan insoniy munosabatlarning, ayniqsa nikohning g‘oyat murakkab munosabatlari chuqur aks ettiradi. Asarning asosiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

g‘oyasi shuki, boshlanish qanchalik yorqin, ishtiyoqli va ideal bo‘lmasin, bu nikohning kelajakdagi baxtli bo‘lishini kafolatlamaydi. Romantik hayajon va ehtiros – bu faqat birinchi qadam. Barqaror va baxtli munosabatlar esa doimiy ravishda parvarishlash, o‘zaro tushunish, muloqot, kechirimli bo‘lish va birgalikdagi sa’y-harakatlarni talab qiladi.

Bu esa hayotning o‘ziga xos darsidir. Asarda “G‘ayratli boshlanish har doim ham baxtli yakunni anglatmaydi. “Nikoh – bu doimiy o‘sish, o‘zgarish va qiyinchiliklarga birgalikda qarshi turish san’atidir. Aks holda, eng ajoyib boshlangan hikoyalar ham qayg‘u va ko‘z yoshlari bilan yakunlanishi mumkin.

Quyida ikki asosiy turdagi turmushni solishtiruvchi jadval asosida Ostenning “Andisha va g‘urur” romanidagi nikoh turlarini ko‘rishimiz mumkin:

| **Nikoh juftligi** | **Asosi** | **Xulosa** |
|---|---|---|
| Elizabet- Darsi | Hurmat va muhabbat | Haqiqiy nikoh: hissiyot va aql uyg‘unligi |
| Sharlotta- Kollinz | Iqtisodiy xavfsizlik | Muhabbatsiz, lekin jamiyatda barqaror |
| Jeyn- Bingli | Halollik va joziba | Iliq, sodda va ijobiy nikoh |
| Lidiya-Uikxem | G‘aflat, istak | Noto‘g‘ri tanlov, ijtimoiy tanqid ostida |

Bu jadval Ostin asarida chizilgan turli xil nikoh manzaralarining ramziy timsolidir. Har bir juftlik o‘z taqdirini tanlagan – kimdir yurak bilan, kimdir aql bilan, yana kimdir esa jamiyat ko‘zoynagidan qarab. Elizabet va Darsi o‘rtasidagi sevgi – insoniy hurmat va qalbning uyg‘unligi, o‘zini anglash va boshqasini tushunishga bo‘lgan say’-harakat natijasidir. Bu nikoh Ostin orzu qilgan ideal baxt timsolidir. Sharlotta va Kollinz esa muhabbatga emas, barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlikka yuz tutgan. Bu nikoh, qanchalik sovuq bo‘lmasin, ayolning hayotiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

zaruratlar oldidagi sabrini, jamiyat bosimiga taslim bo'lishini ko'rsatadi. Jeyn va Bingli sevgisi esa poklik va samimiyatning jilvasidir – go'yoki ularning munosabati quyosh nuri ostida ochilgan pushti gullarga o'xshaydi. Ammo Lidiya va Uikxem o'rtasidagi munosabat g'aflat va mayl ichida qurilgan xomxayoldir – bu nikoh Ostin tomonidan ijtimoiy mas'uliyatdan yiroqlik, yoshlarning beparvoligi va jamiyatdagi yuzaki qadriyatlar tanqidiga aylantirilgan.

Shunday qilib, har bir juftlik orqali muallif bizni jamiyatning turli ranglariga, sevgi va majburiyat o'rtasidagi murakkab yo'llarga chorlaydi.

"We are a true marriage of hearts and minds" [5; 236] ya'ni (Biz yurak va aql tanlovidagi haqiqiy nikohdamiz) iborasi Jeyn Ostin asaridagi haqiqiy nikoh tamoyilini obrazli tarzda ifodalaydi. Bu jumlada ikki inson o'rtasidagi munosabat nafaqat hissiy – qalblarning yaqinligi, balki intellektual – tafakkur va qadriyatlarning uyg'unligi orqali shakllanganini ko'ramiz. Ayniqsa, "Andisha va g'urur" asarida Elizabet Bennet va Darsi o'rtasidagi munosabat shu mezon asosida quriladi. Ularning dastlabki kelishmovchiliklari, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovut va shaxsiy g'ururlariga qaramay, har ikkisi o'zaro chuqur tushunish, o'zgarish va ichki o'sish orqali bir-birini anglay boshlaydi.

Elizabetning mustaqil tafakkuri va axloqiy qat'iyati Darsining g'ururi va sirtqi sovuqligini sinovdan o'tkazadi. Darsi esa Elizabetning ijtimoiy me'yordan yuqoridagi yondashuvi va halolligiga mahliyo bo'ladi. Ularning ittifoqi shunchaki ehtiros yoki ijtimoiy manfaatga emas, balki o'zaro hurmat, tafakkur uyg'unligi va axloqiy barobarliqqa asoslanadi. Shu jihatdan bu ibora Ostenning o'z davriga xos patriarxal nikoh tushunchasidan yuqoriroq, chin insoniy va zamonaviy nikoh idealini ilgari surayotganini anglatadi.

Bunday nikoh – qalb bilan aqlning o'zaro muloqoti, jamiyat bosimi emas, balki ichki yetuklik va andishaning mahsuli sifatida talqin qilinadi. Austen

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

asarlarida bunday uyg‘unlik har doim baxtli yakun sari yetaklaydi va o‘quvchiga nafaqat romantik, balki axloqiy-estetik namunani taqdim etadi.

Jane Austenning asarlarida muhabbat va nikoh nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ular asosida, balki ijtimoiy guruhlar, axloqiy qadriyatlar va oila an’analari bilan chambarchas bog‘langan. Pei, Fu va Huang (2014) ta’kidlaganidek, Osten xarakterlari o‘z tanlovlarini qilayotganda jamiyat tomonidan belgilangan andishalarga to‘qnash keladilar. Ayniqsa, Elizabet va Darsi o‘rtasidagi munosabatlar chuqur axloqiy uyg‘unlik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy ongning yuksak namunasi sifatida tasvirlanadi.[5]

Bundan tashqari, Osten nikoh masalasini shunchaki shaxsiy istak emas, balki ijtimoiy mas’uliyat sifatida talqin qiladi. Muallif qahramonlarning oilaviy muhitda shakllangan qadriyatlarini ularning turmush tanlovlari bilan chambarchas bog‘laydi.

“Otalar obrazining bir vaqtning o‘zida foydali hamda zararli bo‘lishi go‘yoki paradoksga o‘xshasa-da, ularning xatti-harakatlari ta’sir kuchini susaytirmaydi, balki uni yanada murakkablashtiradi”. (Mening tarjimam) [4;2]

Bu fikr Elizabet Bennet va uning otasi o‘rtasidagi murakkab munosabatlarda o‘zining yaqqol ifodasini topadi. Janob Bennet donishmand va nozik hazil tuyg‘usiga ega bo‘lgan ota sifatida tasvirlansa-da, u qizi Elizabetning tarbiyasida faol rol o‘ynamaydi. U ko‘pincha oilaviy masalalardan chetda turadi, ayniqsa, ayollarning hayoti va ularning ijtimoiy kelajagi kabi muhim masalalarda befarqlik qiladi. Shunga qaramay, aynan uning mustaqil fikrlashi, oqilona kuzatuvchanligi va jamiyatdagi sun’iy me’yorlarga kinoya bilan qarashi Elizabet xarakterida ham aks etgan. Elizabet otasining tanqidiy dunyoqarashini o‘zlashtirgan, biroq u otasidan farqli o‘laroq, bu xususiyatni hayotiy faoliyatga va hissiy tanlovlarga tadbiq etadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**Muhokama va xulosa (Discussion/Conclusion):** Janob Bennetning bir qarashda zararli bo‘lib tuyuladigan oiladagi kam ishtiroki aslida Elizabetning mustaqillik va axloqiy qarorlar qabul qilishdagi kuchli pozitsiyasini shakllantirishda bilvosita foydali rol o‘ynaydi. Bu murakkablik Austen yaratgan otalik obrazining chinakam kuchini ko‘rsatadi: u nafaqat mavjudligi, balki sustligi orqali ham farzandga ta’sir o‘tkazadi.

“Jane Austenning otasi qishloq ruhoniysi bo‘lganligi uchun, Jane — inson halol, fidoyi, manfaatsiz va jonsamar bo‘lishi, hamda axloq badiiy jihatdan emas, balki sog‘lom aql va did asosida baholanishi kerakligini tabiiy deb qabul qilgan. Ushbu e’tiqodlar uning asarlarining asosi hisoblanadi”. (Mening tarjimam) [5; 149]

Bu iqtibos Elizabet Bennet xarakteridagi otalar orqali shakllangan axloqiy paradigmalarni yoritadi. Janob Bennet chuqur hazil bilan tavsiflanadi, ammo uning ichki dunyosidagi ahloqiy ustuvorliklar aynan Elizabetda yorqin ko‘rinadi. Bu, o‘z navbatida, Austenning haqiqiy hayotidagi otasi tasviri hamda U orqali tashkil topgan maqbullik tushunchalarining badiiy tahlilini aniqlashga xizmat qiladi. Scholarlar ko‘pincha Janob Bennetni befarq otaning timsoli sifatida baholasa-da, aslida u orqali o‘ğul va qizga tarbiyalangan axloqiy qadriyatlarning aksini tushunish ham mumkin.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Jane Ostin ijodi o‘z davrining ijtimoiy hayoti, urf-odatlari va ayolning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq muhim masalalarni teran ifoda etadi. Asarlarida oila – bu shunchaki qon-qarindoshlik emas, balki inson shaxsiyati shakllanishining asosiy tayanchi sifatida ko‘rsatiladi. Nikoh esa Ostin tafakkurida faqat ijtimoiy majburiyat emas, balki yurak va tafakkur uyg‘unligiga asoslangan muqaddas bir ittifoqdir. Ayniqsa, “Andisha va g’urur” romanidagi Elizabet Bennet va Darsi o‘rtasidagi munosabat bu g‘oyaning yorqin ifodasidir. Ular o‘zlarining ichki o‘sishi, xatolarni anglash va o‘z ustida ishlash orqali bir-birlariga munosib juft bo‘lib yetishadilar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muallif har bir juftlik orqali turlicha saboq beradi. Shu bilan birga, Ostin muhabbatni faqat romantik his emas, balki axloqiy tanlov sifatida talqin qiladi. Bu tanlovda inson nafaqat yuragiga, balki vijdoniga, aqliga, andishasiga quloq tutishi kerak.

Ayniqsa, ota-ona, ayniqsa, ota obrazining qiz farzandlar tarbiyasidagi o‘rni ham Ostin asarlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Elizabetning mustaqil va teran shaxs bo‘lib shakllanishida otasi janob Bennetning befarqona, ammo ta’sirli ishtiroki muhim rol o‘ynaydi. Oila muhiti, jamiyat talablari, guruh qadriyatlari va shaxsiy orzu-istaklar orasida uyg‘unlik topish esa har bir qahramonning ichki kurashidan, axloqiy qaroridan kelib chiqadi.

Shunday qilib, Jane Ostinning asarlari bizga shuni ko‘rsatadiki, chinakam baxtli hayot, baxtli oila – bu yurak va aql birligiga, hurmat va mas’uliyat uyg‘unligiga qurilgan munosabatlardir. Bu g‘oya zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki bugungi kunda ham muhabbat, oila va insoniy qadriyatlar asosidagi muvozanat hayotning eng muhim tayanchidir

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jeyn Ostin. Andisha va g’urur. -Toshkent, 2016

2. Rory Muir. Love and marriage in the age of Jane Austen. New Haven, 2024.

3. Jane Austen. Pride and prejudice/adapted by Fern Siegel; illustrated by Joseph Miralles. New York.

4. Najean Lee. The Participation of Fathers in Jane Austen's Novels. - University of Michigan, 2000.

5. Feifei Pei, Changle Fu, Xiaolin Huang. Jane Austen's Views on Marriage in Pride and Prejudice. Advances in Literary Study, 2014, 2, 147-150